



BOG'OT TUMANI AHOLI JOYLASHUVINING HUDUDIIY JIHATLARI KARTOGRAFIK TAHLILI

Matnazarova Malohat

Urganch davlat universiteti «Geodeziya, kartografiya va kadastr»
yo'nalishi talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-143>

ARTICLE INFO

Received: 14th February 2023

Accepted: 23th February 2023

Online: 24th February 2023

KEY WORDS

Metod va metodologiya, kartografik tahlil, qishloqlar soni, GAT, demografik ko'rsatkichlar.

ABSTRACT

Jahon miqyosida Fan va texnika yutuqlarini yanada rivojlantirishga bo'lgan talab doimo ortib bogan va bundan keyin ham ortib boradi. Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy amaliy loyihalar miqdor va sifat samardorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, aholining mavjud ehtiyojlarini qondirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa Iqtisodiy ijtimoiy sohalrni faoliyatining samardorligini oshirish zarurati yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda butun dunyo miqyosida barcha sohalrni raqamlashtirish jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Sohalrni raqamlashtirish turli obyektiv va subyektiv muammolarni oldini oladi hamda iqtisodiy samardorlikni oshiradi. Raqamli texnologiyalr ko'pgina sohalr qatorida geografiya, kartografiya, geodeziya va kadastr yo'nalsihlariga ham tadbiiq qilinmoqda. Ushbu sohalarda raqamli texnologiyalr Geografik axborot tizimlari sifatida qo'llanilmoqda. Bog'ot tumani 7 dekabr 1970 yilda tashkil topgan. Egallagan maydoni esa 447,5 kv km ni tashkil etadi. Bog'ot tumanida ham tuman markazida va bir qancha mahallalarda (Ashhobot MFY) ko'p qavatli turar joylar barpo qilinmoqda. Tuman aholisi joylashuvini rejalashtirishda qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish va infrastruktura hmada aholini ish bilan ta'minlash masalalari inobatga olinishi lozim. Tuman miqyosida Qipchoq mahallasi hozirgi kunda aholi eng ziyrak joylashgan hudud sanaladi.

Jahon miqyosida Fan va texnika yutuqlarini yanada rivojlantirishga bo'lgan talab doimo ortib bogan va bundan keyin ham ortib boradi. Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy amaliy loyihalar miqdor va sifat samardorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, aholining mavjud ehtiyojlarini qondirish ishlarini muvaffaqiyatli olib



borish zarur. Bu esa Iqtisodiy ijtimoiy sohalrni faoliyatining samardorligini oshirish zarurati yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda butun dunyo miqyosida barcha sohalrni raqamlashtirish jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Sohalrni raqamlashtirish turli obyektiv va subyektiv muammolarni oldini oladi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Raqamli texnologiyalr ko'pgina sohalr qatorida geografiya, kartografiya, geodeziya va kadastr yo'nalsihlariga ham tadbiiq qilinmoqda. Ushbu sohalarda raqamli texnologiyalr Geografik axborot tizimlari sifatida qo'llanilmoqda. .

Aholi soni ortishi bilan uning yer, suv, oziq-ovqat, energetika kabi resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi. Shu sababdan ushbu resurslarni hududiy xususyatlarini monitoring qilish va boshqarish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada GAT tizimlarining amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, yerdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish suv resurslarini boshqarishda monitoring iqlishda, kartalshtirishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.


Ishning maqsadi: Bog'ot tumanidagi aholi joylashuvini geografik axborot tizimlaridan foydlangan holda tahlil qilish, kartaga olish va baholash. Aholining joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni atroflicha o'rganish.

Metod va motodologiya: ishda Geofazoviy tahlil, kartografik tahlil, taqqoslash va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism: Bog'ot tumani 7 dekabr 1970 yilda tashkil topgan. Egallagan maydoni esa 447,5 kv km ni tashkil etadi. Aholisi 172,6 ming kishi, hozirda aholi soni yillar davomida o'zgarib bormoqda¹. Bog'ot tumani aholi punktlari kartasida aholi punktlari, mahalla chegaralari, qishloq chegaralari va tuman chegarasi joylashgan. Bog'ot tumanida 99 ta aholi punktlari mavjud. Bugungi kunda Bog'ot tumanida 43 ta mahalla tashkil qilingan.

Bog'ot tumani jami yer maydoni 447,5 kv.km bo'lib, shundan aholi punktlari egallagan maydoni 62 kv.km hududini tashkil qiladi. Yani aholi punktlari tuman yer maydoninig sal kam 14 % hududida joylashgan.

¹ <http://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>



1-rasm. Bog'ot tumani aholi karta sxemasi Karta sxema statistik ma'lumotlar asosida Mtnazarova Malohat tomonidan tuzilgan.

Bog'ot tumanida qishloqlar soni 11 tashkil etadi. Qishloqlarning aholi soni bo'yicha tahlil qilganda, jami aholi soni 172,6 kishini tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 1,7%ga o'sgan. (2023-yil). Aholining qishloqlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 14325 kishiga teng, minimum ko'rsatkichi 9054 kishi, maximum ko'rsatkich esa 26321 kishini tashkil etadi. Qishloqlar bo'yicha taqsimlanganda, eng ko'p aholi joylashgan hudud Beshariq qishlog'i, aholi soni 26321 kishini o'z hududiga qamrab olgan. Bog'ot tumani aholisining 14,9 foizni egallagan. Aholi soni eng kam bo'lgan qishloq Qipchoq, Bog'ot tumani aholisining 5,9 foizini tashkil etadi. Madaniyat qishlog'i bilan bir xil ko'rsatkichga ega. Maydoni eng katta bo'lgan qishloq Qipchoq 70,9 kv km ni egallagan, Bog'ot tumanining 15,9 foizini tashkil etadi. Qipchoq qishloq hududida aholi tuman miqyosida eng siyrak joylashgan. Qishloqlarda aholi asosan sug'orma dehqonchilik va bogdorchilik hamda uzum yetishtirish bilan shug'ullanadi. .

Qishloq aholi punktlari bo'yicha demografik ko'rsatkichlar

No	Qishlok	aholi soni 2010 (kishi hisobida)	aholi soni 2023 (kishi hisobida)-	maydon kv.km hisobida	aholi foiz hisobida	maydon foiz hisobida
1	Bog'ot shahri	10358,2	13320,39	4,6	7,6	1,0
2	Beshariq	24321	31276,81	66,7	17,9	14,9



3	Dehqonbozor	16665,4	21431,19	31,7	12,3	7,1
4	Qipchoq	8054,7	10357,44	70,9	5,9	15,9
5	Madaniyat	8061	10366,45	19,5	5,9	4,4
6	Nayman	14096	18127,46	41,4	10,4	9,2
7	Qorayontog	11876	15272,54	36,7	8,7	8,2
8	Qulanqorabog'	11346,1	14590,96	32,0	8,3	7,2
9	O'guzrabot	10341,3	13298,53	41,8	7,6	9,3
10	Xitoy	12526	16108,44	37,5	9,2	8,4
11	Xo'jalik	8374	10768,96	64,6	6,2	14,4
12	jami	134200,0	172581,2	447	100,0	100,0

2-jadval Demografik ko'rsatkichlar qishloqlar bo'yicha

Beshariq qishlog'i umumiy aholi soni 24321 kishini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich qishloqlarning o'rtacha aholi soni ko'rsatkichidan 2 barobar katta.

Bog'ot tumanida aholi joylashuvining yana bir muhim jihati aholi asosan irrigatsiya kanallari, magistral avtomobil yo'llari va tuman markazilariga yaqin hududlarda zich joylashgan. Tadqiqotchi Gulimmatov I.B. ma'lumotiga ko'ra tumanda aholi soni eng ko'p bo'lgan mahalla Nurafshon (8500 kishi), Ashxobot, Navbahor Oqtepa, Yangi qadam mahallalari aholi soni 5000 kishidan ortiq (2-jadval)². Qipchoq (1824 kishi), Navruz, Ustalar, G'alaba, Yosh o'smir mahallalarida esa 2500 kishidan kam aholi istiqomat qiladi. Mahallar bo'yicha jami 44896 ta oila mavjud bo'lib, o'rtacha har bir oilada 4 kishi istiqomat qiladi. Qipchoq va Sahovat mahallalarida 2-3 kishi to'g'ri keladi. Yuksalish mahallasida esa eng yuqori ko'rsatkich 6 kishi bitta oilaga to'g'ri kladi.

№	Tumanlar	Aholi soni (ming kishi)	Urbanizatsiya darajasi (foiz hisobida)	Shaharchalar soni	Mahallalar soni	Mahallalar bo'yicha guruhlanishi				
						Aholi soni		Zichligi		Fuksiyasi
						Guruh	soni	Guruh	soni	
3	Bog'ot	172,6	17,55	5	43	Kichik		Juda siyrak		Paxta, uzum, bog'dorchilik, xizmat ko'rsatish
						O'rta	13	Siyrak	1	
						Katta	24	O'rtacha zich	19	
						Yirik	6	Zich	17	
						Juda yirik		Juda zich	6	

² Gulimmatov I.B. Вопросы классификации населенных пунктов (на примере Хорезмской области) // Экономика и социум.-2023.- №1(104) 25.01.2023). <https://www.iupr.ru/1-104-2023>



2-jadval Bog'ot tumani aholi mahallalari klassifikatsiyasi.

Xulosa. Respublikamizda aholini uy-joy bilan ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj oilalarni ijtimoiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususiyl pudrat tashkilotlarini uy-joy qurilishi sohasiga faol jalb etish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda o'tgan to'rt yilda shahar va qishloqlarda arzon uy-joylar qurish bo'yicha qabul qilingan dasturlarga binoan 140 mingta uy-joy barpo etilib, bu avval qurilgan uylarning o'rtacha soniga nisbatan 4-5 baravar ko'pdir.

Biroq amalga oshirilayotgan tadbirlarga qaramay, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligicha qolmoqda, minglab uy-joylar barpo etish, loyiha va qurilish sifatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash lozimligini hayotning o'zi talab qilmoqda³.

Bog'ot tumanida ham tuman markazida va bir qancha mahallalarda (Ashhobot MFY) ko'p qavatli turar joylar barpo qilinmoqda. Tuman aholisi joylashuvini rejalashtirishda qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish va infrastruktura hmada aholini ish bilan ta'minlash masalalari inobatga olinishi lozim. Tuman miqyosida Qipchoq mahallasi hozirgi kunda aholi eng ziyrak joylashgan hudud sanaladi.

References:

1. Гулимматов И.Б. Вопросы классификации населенных пунктов (на примере Хорезмской области) // Экономика и социум.-2023.- №1(104) 25.01.2023). <https://www.iupr.ru/1-104-2023>
2. Аvezов С., Гулимматов И. "Хоразм воҳаси аҳоли манзилгоҳлари шаклланишининг тарихий географик масалалари". Ўзбекистон Республикаси География жамияти ахбороти 59-том 2021
3. <http://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
4. <https://www.thegeographeronline.net/settlements.html#:~:text=Key%20Terms,with%20over%2010%20million%20residents>).
5. [https://mirror.unhabitat.org/downloads/docs/The Vancouver Declaration.pdf](https://mirror.unhabitat.org/downloads/docs/The_Vancouver_Declaration.pdf)
6. <https://www.britannica.com/topic/hamlet-settlement>

³ <https://lex.uz/docs/-5350202>